



*hokimligi
mактабгача ва мактаб та’лими
бoshqarmasi*

*mактабгача ва
мактаб та’лими bo‘limi tasarrufidagi
—umumiy o‘rta ta’lim mакtabi
tarix fani o‘qituvchisi*

*ning
20__-20__-o‘quv yili uchun
“TARIXSHUNOS” NOMLI*

**TO‘GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

Nº	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfı	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O‘tkazilgan xona

“_____” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari _____

“_____” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Tarixshunos” to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Xuroson va va Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat.			
2.	Dashti Qipchoqdagisiy ahvol. Muhammad Shayboniyxon			
3.	Movarounnahrdagi shayboniyalar sulolasi hokimiyatining o‘rnatalishi			
4.	Zahiriddin Muhammad Bobur-buyuk davlat arbobi va mutafakkir			
5.	Buxoro xonligi			
6.	XVI asrda Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot			
7.	Buxoro xonligining tashqi siyosati			
8.	Buxoro xonligida madaniy hayot			
9.	XVI asrda Buxoxro xonligida madaniy hayot			
10.	Ashtarkoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi			
11.	XVIII Asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va uning oqibatlari			
12.	Ashtarkoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot			
13.	Ma’naviy – ma’rifiy, madaniy hayot			
14.	Buxoroda mang‘itlar sulolasi hukmronligining o‘rnatalishi			
15.	Amirlik davlat tuzumi va uning ma’muriy boshqarilushi			
16.	Xiva xonligini tashkil topishi			
17.	XVII XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol			
18.	Xiva xonligida davlat boshqaruvi			
19.	Xiva xonligining tashqi siyosati			
20.	Xiva xonligida madaniy hayot			
21.	Xiva xonligini tashkil topishi			
22.	Xiva xonligi tarixi bo‘yicha manbalar			
23.	XVI-XIX asrning birinchi yarmida Qoraqolpoqlar			
24.	Qoraqolpoqlarda madaniy va ma’naviy hayot			
25.	Qo‘qon xonligini tashkil topishi			
26.	Qoraqolpoqlarda madaniy hayot			
27.	XVIII asrni ikkinchi yarmi XIX asirning birinchi yarmida Qo‘qon xonligida siyosiy ahvol			
28.	Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi			
29.	Qo‘qon xonligida harbiy ish			
30.	Qo‘qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot			
31.	Qo‘qon xonligining tashqi siyosati			
32.	Qo‘qon xonligida madaniy hayot			
33.	Qo‘qon xonligida ta’lim			
34.	O‘zbek davlatining taraqqiyoti orqada qolish sababları			
35.	Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati.			

36.	Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi.			
37.	Yangi davr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy – iqtisodiy hayot.			
38.	Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi.			
39.	Fransiyada mutlaq monarxiya.			
40.	XVI – XVII asrlarda Rossiya.			
41.	Yevropada Uyg‘onish davri madaniyati.			
42.	Ilm – fan taraqqiyoti.			
43.	Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari.			
44.	Amerika Qo‘shma Shtatlarining tashkil topishi.			
45.	Buyuk fransuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi			
46.	XVI – XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi.			
47.	Rossiya imperiyasining tashkil topishi.			
48.	XVI – XVIII asrlarda Hindiston.			
49.	XVI – XVIII asrlarda Xitoy.			
50.	XVI – XVIII asrlarda Yaponiya.			
51.	XVI – XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi (Turkiya).			
52.	XVI – XVIII asrlarda Eron.			
53.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Buyuk Britaniya.			
54.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Germaniya va Italiya.			
55.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Rossiya imperiyasi.			
56.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Amerika Qo‘shma Shtatlari.			
57.	Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.			
58.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Hindiston			
59.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Xitoy.			
60.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Yaponiya.			
61.	XVI-XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Koreya.			
62.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Usmoniylar imperiyasi.			
63.	XVI – XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Afg‘oniston.			
64.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Eron.			
65.	XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Afrika xalqlari.			
66.	Yevropada XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar.			
67.	Ilm-fan taraqqiyoti.			
68.	Adabiyot va san’at.			

Mashg'ulotning mavzusi: XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Xuroson va Mavarounnahrdagi siyosiy vaziyat.

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiya maqsad – o 'quvchilarga XV-XVI asrlarda diyorimizda yuz bergan o 'zgarishlar, temuriylar davlatining inqirozi sabablarini , siyosiy kurash maydoniga Z.M.Boburning kirib kelishi, usha davr siyosiy ijtimoiy shart-sharoitlari haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad – O 'quvchilarni milliy g 'urur, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, tarixiy ongini ustirish.

Rivojlanuvchi maqsad – mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanirish.

Mashg'ulot turi: o 'quvchilarning yangi bilim, ko 'nikma va malakalarini hosil qilish.

Mashg'ulotda foydalaniladigan metodlar: an'anaviy, zamonaviy, interfaol metodlar

Mashg'ulotning jihizi: :"O 'zbekiston tarixi" 8-sinf uchun darslik, "O 'zbekiston tarixi" 8-sinf uchun metodik qo 'llanma, slayd,multimedia siyosiy xarita

I.Tashkiliy qism. a) salomlashish, b) davomat, c) yurtimiz va xorij xabarlarini so 'rash.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash. (uyga vazifa tekshiriladi.)

III.Yangi mavzu: 1-&. XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Xuroson va va Mavarounnahrdagi siyosiy vaziyat.

Xuroson hukmdori Shohrux 1447-yili vafot etgach, toj-u taxt uchun kurash avjiga chiqdi. Natijada, Xuroson davlati o'n bir qismga bo 'linib ketdi. Ularning har bin o 'zini mustaqil davlat deb hisoblar edi.

1469-yilda Amir Temuring ikkinchi o 'g 'li Umarshayxning nabirasi Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egalladi. Salkam 40 yil hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro davrida ham mamlakatda to 'la osoyishtalik o 'rnatilmagan bo 'lsada, Xuroson davlatining xo 'jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlandi. Mamlakat obodonchiligi yo 'lida katta ishlar amalga oshirildi. Mavarounnahrga nisbatan siyosiy barqarorlik ta 'minlandi. Bunda Husayn Boyqaroning hukmdorlik salohiyati muhim o 'rin tutdi. Vazir Alisher Navoiyning xizmatlari ham benihoya katta bo 'ldi.

1506-yilda Sulton Husayn Boyqaro vafot etdi. Shundan keyin mamlakatda qo 'shhokimiyaatchilik vujudga keldi. Marhum sultonning ikki o 'g 'li (Badiuzzamon va Muzaffar Husayn) bir vaqtida hukmdor deb e 'lon qilindi.

Bu hol shusiz ham og 'ir kunlarni boshidan kechirayotgan Xuroson davlatini to 'la parokandalikka olib keldi.


Natijada shayboniyalar hujumi arafasida davlat inqirozga yuz tutdi.

Mirzo Ulug 'bek vafotidan keyin, Mavarounnahrdha ham toju taxt uchun ayovsiz kurash boshlanib ketdi. Bu kurashda Mironshohning nabirasi Abu Said Ibn Sulton Muhammad g 'alaba qozonadi va Mavarounnahr taxtini egallaydi (1451-1469). U 1469-yilda urushda halok bo 'lgach, hokimiyatni uning ikki o 'g 'li: Sulton Ahmad (1469-1494), Sulton Mahmud (1494-1495) hamda nabiralari Boysung 'ur Mirzo (1495-1497) va Sulton Ali Mirzo (1498-1500) lar boshqargan. Xullas, temuriylar hukmronligi davri oxirida o 'zaro urush-talash oqibatida mamlakat to 'la tanazzulga yuz tutgan.

XVI asr bo 'sag 'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga Zahiriddin Muhammad Bobur chiqdi. Bobur Mirzo Amir Temuring uchinihi o 'g 'li Mironshohning chevarasi edi.

U 1483-yilning 14-fevralida Andijon shahrida tug 'ilgan. Bolalik va yoshlik yillari Andijon va Aksi shaharlarida o 'tgan. U otasi Umarshayx Mirzo (1455-1494) saroyida o 'z davriga yarasha barcha zarur bilimlarni egallagan.

Umarshayx Mirzo otasi Abu Said Mirzo hukmronligi davrida, dastlab, Kobul viloyatiga, so 'ng Farg 'ona viloyatiga hukmdor etib tayinlagan. Keyinchalik akasi Sulton Ahmad hukmronligi davrida Toshkent va Sayram ham Umarshayx Mirzoga berilgan. Biroq o 'zaro ichki kurashlar natijasida Umarshayx Mirzo qo 'l ostida faqat Farg 'ona, Xo 'jand va O 'ratepagina qolgan.



Umarshayx Mirzo 1494-yilda baxtsiz hodisa tufayli halok bo‘lgach, hokimiyat 11 yoshli Bobur Mirzo qo‘liga o‘tdi.

Bobur yosh bo‘lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojipozi va o‘qimishli, oqila onasi Qutlug‘ Nigorxonim yordamida Bobur Mirzoning siyosat maydoniga chiqishi Temuriylar sultanatida harbiy-siyosiy vaziyat nihoyatda og‘irlashgan sharoitga to‘g‘ri keldi. Bu holat Farg‘onadagi siyosiy vaziyatda ham o‘z ifodasini topdi.

Chunonchi, 1494-yili Bobur Mirzoning amakisi Sulton Ahmad Mirzo Farg‘ona ustiga yurish boshladi. Samarqand qo‘shini Quvasoy ko‘prigidan o‘tayotganda falokat yuz beradi. Ko‘p kishi suvgaga g‘arq bo‘ladi. Buning ustiga otlarga o‘lat tegadi, qo‘shin orasida vahima va sarosimalik ham boshlanadi. Ayni paytda mahalliy xalq g‘animlarga qaqshatqich zarba bera boshlaydi. Chorasiz qolgan Sulton Ahmad Mirzo Samarqandga qaytib ketadi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay Bobur Mirzoning tog‘asi-Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxon Farg‘ona ustiga yurish boshlaydi va Aksi qo‘rg‘onini qamal qiladi. Biroq Sulton Mahmudxon qanchalik urinmasin, Aksini olishga qurbi yetmadi. Aksi himoyachilarining mardonavor kurashayotganini ko‘rgan Sulton Mahmudxon ham Toshkentga qaytishga majbur bo‘ldi.

Sulton Ahmad Mirzo Samarqandga yetmasdan yo‘lda to‘sattan vafot etadi. 1495-yilning yanvarida Samarqand taxtiga Sulton Mahmud Mirzoning ikkinchi o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo (1495-1497) o‘tqizildi.

Shunday qilib, Andijonda Bobur Mirzo, Samarqandda Boysung‘ur Mirzo, Toshkentda Sulton Mahmudxon, Hirotda esa Sulton Husayn Boyqaro hukmron edilar.

Bobur Mirzo ham barcha taxt da‘vogarlariga xos xususiyatlardan xoli emasdi. U ham sultanat tuzish, buning uchun, avvalo, ulug‘ bobosi Amir Temur sultanatining markazi-Samarqand taxtini egallash ishtiyoqi bilan yonar edi.

Tez orada Boysung‘ur Mirzo bilan ukasi Sulton Ali Mirzo o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlandi. Bundan xabar topgan Bobur Mirzo 1496-yilning 17-iyunida qo‘shini bilan Samarqand qamaliga tutinadi. Ayni paytda, Bobur Mirzo tog‘asi-Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxonidan yordam oladi. Biroq qish yaqinlashib qolganligi tufayli ittifoqchi shahzodalar Samarqand qamalini to‘xtatib, yurtlariga qaytishga majbur bo‘ldilar.

1497-yilning may oyida Bobur Mirzo ikkinchi marta Samarqandga yurish boshlaydi va yana Samarqand qamali boshlanadi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi yuz bergani tufayli Boysung‘ur Mirzo askarlari orasida parokandalik ro‘y beradi. Qamalga bardosh berishga ko‘zi yetmagan Boysung‘ur Mirzo Dashti Qipchoq hukmdori Shayboniyxon-dan yordam so‘raydi. Shayboniyxon qulay fursatdan foydalanib, tez orada Samarqandga kelib, Bobur Mirzo qarorgohining ro‘parasiga joylashadi. Bobur Mirzo bor askari bilan Shayboniyxonga qarshi chiqishga shaylandi. Kutilmaganda Shayboniyxon shahar ichkarisiga qarab yurdi, biroq Boysung‘ur uni shaharga kiritmadni. Boysung‘ur uni shahar tashqarisida bo‘ladigan jangda ittifoqchi bo‘lishga taklif qilgan edi. Bundan ranjigan Shayboniyxon qo‘shini bilan Turkistonga qaytib ketdi. Shunday bo‘lsa-da, Shayboniyning Samarqandga kelishi behuda ketmadi. U bu yerga yana qaytishni, qaytganda ham qanday kuch bilan qaytishi zarurligini bilib oldi. Ikkinchidan, u temuriyzodalarning ahvoli o‘zaro urushlar oqibatida nochor holatga tushib qolganligini ko‘rib qaytdi.

IV. Mustahkamlash. Mashg‘ulotlikdagi topshiriqlar, savollar ustida ishslash.

V. Baholash. Mashg‘ulotda faol ishtirop etgan, uyga vazifani a’lo darajada bajargan o‘quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan 10 ta test tuzish va mavzuni o‘qib kelish.

Sana: "___" 20__-yil. Sinflar: _____. To'garak rahbari: _____

Mashg'ulotning mavzusi: Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol. Muhammad Shayboniyxon

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiyl maqsad – o'quvchilarga Dashti Qipchoq aholining ijtimoiy tuzumi va davlatining vujudga kelishi shart sharoitlari, ularning turmush tarzi va Muhammad Shayboniyxon haqida umumiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarini tarixiy ongini, fikrlash doirasini kengaytirish, tinchlik ruhida tarbiyalash, jahonda bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri munosabat bildirishni o'rgatish.


Rivojlantiruvchi maqsad – mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Mashg'ulot turi: o'quvchilarning yangi bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish.

Mashg'ulotda foydalaniladigan metodlar: an'anaviy, zamonaviy, interfaol metodlar

Mashg'ulotning jihozi: "O'zbekiston tarixi" 8-sinf uchun darslik, "O'zbekiston tarixi" 8-sinf uchun metodik qo'llanma, doska, bor, siyosiy xarita

I.Tashkiliy qism. a) salomlashish, b) davomat, c) yurtimiz va xorij xabarlarini so'rash.



II. O'tgan mavzuni mustahkamlash. (uyga vazifa tekshiriladi.)

III.Yangi mavzu: Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol. Muhammad Shayboniyxon

XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida "Dashti Qipchoq" deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yon bag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan dashtlarga nisbatan ishlatilgan.

Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turgan.

Bu hududlar rus manbalarida "Poloveslar yeri" nomi bilan yuritilgan. Chunki ruslar Dashti Qipchoq aholisini poloveslar deb atashgan. Vizantiya manbalarida ular kumanlar, sharq manbalarida esa qipchoqlar nomlari bilan qayd etilgan.

1428-yilda Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybon naslidan bo'lган Abulkayrxon (1412-1468) Sharqiy Dashti Qipchoqni egallab, alohida davlatga asos soladi. Tarixiy manbalarda bu davlat «o'zbek ulusi» (o'zbeklar mamlakati) deb ham ataladi. 1431-yilda Xorazmni ham bosib oladi.

1446-yilda Abulkayrxon Sirdaryoning o'rtal oqimida joylashgan shaharlar-Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq, O'zgan va Suzoqni bosib oladi. O'z davlatining poytaxtini Turadan Sig'noqqa ko'chirdi.

Samarqand taxti uchun kurash kuchaygan paytda Abulkayrxon vaziyatdan foydalanishga harakat qiladi. U 1451-yilda o'zidan madad so'ragan temuriyzoda Abu Said Mirzoga Samarqand taxtini egallahda yordam berish bahonasida yurish boshladi. Abulkayrxon katta o'ljalarni bilan o'z yurtiga qaytadi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Said Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimni Abulkayrxonga xotinlikka beradi.

Abulkayrxon keyin ham bir necha bor Movarounnahr ishlariga aralashdi. Shu orqali u Movarounnahrda borgan sari o'z nufuzining ortishiga erisha olgan.

Abulkayrxon tomonidan tuzilgan davlat 40 yil hukmronlik qiladi. 1468-yilda Abulkayrxon vafot etishi bilanoq, bu davlat parchalanib ketdi.

Muhammad Shayboniy Abulkayrxonning nabirasi, Shohbudog' Sultonning o'g'li edi. Shohbudog' Sultondan ikki o'g'il qolgan: Muhammad Shayboniy va Mahmud Sulton. Muhammad Shayboniy 1451-yilda tug'ilgan.

Shayboniyning bobosi Abulkayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko'ra tug'ilgan go'dakka ikki ism qo'yish urf bo'lgan. Ismlarning birinchisi islomiy (arab), ikkinchisi esa turkiy bo'lgan. Tug'Uganda Muhammad deb nom olgan Shayboniy o'zining ikkinchi nomi bilan mashhur bo'lgan. "Boburnoma" asarida Shayboniyning ismi Shoybog'xon deb berilgan. Bu nom "kuch-qudrat" degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon faqat xon bo'lmasdan, ayni paytda, ilm-ma'rifat homiysi va

o‘zi ham didli ijodkor, shoir bo‘lgan. Shu bois, Shayboniyxon Shohbaxt, Shoybog‘, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan she’rlar yozgan.

Otasi Shohbudog‘ Sulton va onasi Qo‘zibegimdan yoshligida yctim qolgan Muhammad Shayboniy otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalangan. Qorachabek bu shahzodaga otalarcha mehribonlik ko‘rsatgan. Keyinchalik Shayboniyga nufuzli temuriy amirlardan bo‘lmish Turkiston va O‘tror hukmdori Muhammad Mazid tarxon homiylik qildi. Shayboniy ukasi bilan Turkistonda uzoq vaqt yashamadi. Keyinchalik ular Buxoroda yashab, ilm o‘rgandilar, she’riyat va ilm-fanga oshno bo‘ldilar. Balog‘atga yetgani sari Shayboniy ko‘nglida bobosi Abulxayrxon davlatini tiklash orzusi jo‘sh ura boshladi. U Dashti Qipchoqqa qaytib borib, lashkar to‘plashga muvaffaq bo‘ladi. Ayni paytda, u bobosi davlatini tiklash yo‘lidagi xatti-harakatini dastlab o‘z qo‘smini bilan temuriylarga yollanma qo‘sish lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan.

Dastlab, Shayboniy parchalangan Amir Temur davlatining shimoliy chegarasida noiblik qilayotgan homiysi Mazid tarxondan uni o‘z xizmatiga olishni so‘raydi. Avvaliga bu taklifga rozi bo‘lgan Mazid tarxon tezda Shayboniyning xavf solishi mumkinligini anglab yetadi. Natijada u Shayboniyni Buxoro hokimi Darvish Muhammad tarxon ixtiyoriga jo‘natib yuborish orqali undan qutuladi. Chunki Darvish Muhammad bunday yordam kuchiga muhtoj edi.

Shayboniyxonning xizmatidan ham Mo‘g‘uliston, ham Mavarounnahr, ham Xuroson hukmdoriari o‘zlarining qo‘snilariga hamda ichki raqiblariga qarshi kurashda foydalanganlar. Bu kurashlarda Shayboniy o‘zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qildi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniya Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishga imkon berdi.

Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan keyin parokanda bo‘lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida XVasrning 80-yillarida davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldi.

Vaqt o‘tib, Shayboniyxon Sirdaryo bo‘ylaridagi qo‘rg‘onlarni ham egalladi. Bu qo‘rg‘onlar kelgusida unga Mavarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o‘tadi.

XV asrning yigirmanchi yillarida Abulxayrxon Sharqiy Dashti Qipchoqda «o‘zbek ulusi» nomli davlatga asos solgan.

IV. Mustahkamlash. Mashg‘ulotlikdagi topshiriqlar, savollar ustida ishslash.

V. Baholash. Mashg‘ulotda faol ishtirok etgan, uyga vazifani a’lo darajada bajargan o‘quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan 10 ta test tuzish va mavzuni o‘qib kelish.

Mashg'ulotning mavzusi: Movarounnahrda shayboniyalar sulolasini hokimiyatining o'rnatilishi

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta'limiylar maqsad – o'quvchilarga Movarounnahrda shayboniyalar sulolasini hokimiyatining o'rnatilishi, usha davrda temuriylar sultanatining barham topishi sabablari haqida umumiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad – O'quvchilarni diniy bag'rikinglik, ijtimoiy hamkorlik g'oyalari ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad – mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Mashg'ulot turi: o'quvchilarning yangi bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish.

Mashg'ulotda foydalaniqidigan metodlar: an'anaviy, zamonaviy, interfaol metodlar

Mashg'ulotning jihozi: :"O'zbekiston tarixi" 8-sinf uchun darslik, "O'zbekiston tarixi" 8-sinf uchun metodik qo'llanma.

I.Tashkiliy qism. a) salomlashish, b) davomat, c) yurtimiz va xorij xabarlarini so'rash.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash. (uyga vazifa tekshiriladi.)

III. Yangi mavzu: Movarounnahrda shayboniyalar sulolasini hokimiyatining o'rnatilishi

Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'nqoshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini aslo istamas edilar. Shu tufayli ular Muhammad Shayboniyxon timsolida bunday qirg'inga yo'l qo'ymaydigan qodir shaxsni ko'rdilar.



Bundan tashqari, Dashti Qipchoq qabilalari ko'pdan buyon o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilib kelardilar. Bu orzuning ushalishi o'zgalarning unumdon yerlarini bosib olish tufayligina ro'yobga chiqishi mumkin edi.

Qabilalar rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga qodir birdan bir qudrat deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar kuchli yoUanma qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaydilar.

Ular yerlari unumdon, hunarmandchiligi rivojlangan o'lkalarining bosib olinishi o'troq hayotga o'tish imkonini berishini ham yaxshi bilganlar. Bu omillar Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi. Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Shu tufayli Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va hatto oddiy aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rganlar. Shu tufayli Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganlar.

Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar davlati hududlarida ham o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun barcha zarur shart-sharoit yetilgan edi.

Muhammad Shayboniyxonning asosiy maqsadi Temuriylar sultanatiga butunlay barham berish edi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun u 1499-yilda Movarounnahri zabit etishga kirishdi. U bu o'rinda raqiblarini sarosimaga solib qo'ygan jang usuli-to'lg'amani qo'lladi.

1500-yilda Muhammad Shayboniyxon Samarqandni jang-siz egalladi. Bu hodisa Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrobegi og'aning xatosi oqibatida sodir bo'ldi. Xoinlar Zuhrobegi og'ani Muhammad Shayboniyxonga maxfry ravishda "Men ham o'zbek urug'idanman, agar siz meni nikohingizga olsangiz, o'g'lim bilan sizning hukmingizni tan olib, Samarqandni siz xon hazratlariga topshirurmiz" mazmunidagi xatni yuborishga ko'ndiradilar.

Ayni paytda, Zuhrobegi og'a Shayboniyxon oldiga Termiz, Chag'aniyon, Hisor va Badaxshon zabit etilgach, bu hududlarni o'g'li Sulton Ali Mirzoga berish shartini ham qo'ygan edi.

Muhammad Shayboniyxon o'zini bu shartlarga rozidek qilib ko'rsatdi.

Samarqand taxti egallangach esa Sulton Ali Mirzo qatl etildi. Onasi Zuhrobegi og'a esa boshqa kishiga nikohlاب berildi. Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxon 1501-yilda Samarqandni uzil-kesil

egalladi. Katta qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxon endi butun Movarounnahrni egallahga kirishdi.

1503-yilda Toshkent va Shohruxiya shaharlari egallanadi. Shayboniyxon Ulugbek Mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbeginning o'g'illari Ko'chkunchixon va Suyunchxo'jaxonlarni Toshkent va Shohruxiyaga hokim etib tayinladi.

1504-yilda esa Farg'ona zabit etildi. Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Samarqand shahri poytaxt etib belgilandi. Buxoro shahrini esa ukasi Mahmud Sultonga topshirdi.

Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkamlanib olgach, endi Xorazmni zabit etishga kirishdi. 1505-yilda Urganch shahrini bosib oldi.

1505-yil kuzida Xurosonga yurish boshladi. So'nggi yillarda o'zaro ichki urushlar oqibatida, inqirozga yuz tutgan temuriylarning Xuroson davlatini egallashi qiyin bo'lmadi. 1506-yilda Balx olindi. 1507-yilda Hirot qo'shnlari tor-mor etildi. Shundan so'ng Hirot o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi.

Xurosonning ham bo'ysundirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz-Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi. Shu tariqa u XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab temuriyzodalar amalga oshira olmagan vazifani bajardi. Shunday qilib, Shayboniyxonning olib borgan shiddatli va beayov urushlari oqibatida Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan hududda Muhammad Shayboniyxon hukmronligi o'rnatildi va davlatchiligidiz tarixida shayboniylar sulolasi hukmronligi davri boshlandi.

Bu vaqtida Eronda shoh Ismoil Safaviy hukmdorlrk qilayotgan edi. U o'z davri uchun katta va qudratlari qo'shin tuza olgan edi. Ismoil Safaviy tuzgan saltanat tarixda **Safaviylar davlati** nomi bilan mashhur.

Shoh Ismoil davlati kattagina hududlarni o'z ichiga olardi. Bu davlatning bir sarhadi Xuroson bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli turklar davlati bilan tutashgan edi. Shoh Ismoil islomning shia oqimiga e'tiqod etuvchi va uni Eronda hukmron e'tiqod shakliga aylantirgan hukmdor edi. Uning ko'rsatmasi bilan har bir masjidda shialar 12 imomining nomi xutbaga qo'shib o'qitiladigan bo'lgan.

Shoh Ismoil boshliq Eron safaviylarining Xurosonga tazyiqi tobora kuchayib, talonchilik harakatlari avj oldi. Shayboniyxon shoh Ismoildan Shayboniyxon nomini xutbaga qo'shib o'qitishni talab etdi. Bu talabni shoh Ismoil haqorat deb bildi. Endi ikki hukmdor o'rtasida urush bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi.

Nihoyat, 1510-yilda ikki hukmdor qo'shini to'qnashdi. Marv yaqinida bo'lgan jangda Muhammad Shayboniyxon qo'shnlari yengildi. Shayboniyxon va uning safdoshlari jangda halok bo'lishdi.

Shu tariqa, shoh Ismoil Amudaryoning so'l sohilini bosib olib, butun Xurosonni egalladi. Hirot shahri Safaviylar davlatining ikkinchi markaziga aylantirildi. Shoh Ismoil katta o'g'li Taxmaspni markazi Hirot bo'lgan Xurosonning hukmdori etib tayinladi.

ATAMALAR:

Sunniylik-(arab tilida odat, an'ana, xatti-harakat tarzi degan ma'nolarni anglatadi) bu islomdagি Qur'oni Karim bilan birga Muhammad (s.a.v) payg'ambarning sunnatlarini Qur'oni Karimdan keyingi, uni to'ldiruvchi manba ekanligini, shuningdek, dastlabki 4 xalifalarning (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali) hokimiyati qonuniy ekanligini tan oluvchi oqimdir. Dunyodagi barcha musulmonlarning 90% dan ortig'i shu oqimga mansubdirlar.

To'lg'ama-jang chog'ida dushman qo'shini qanotlaridan aylanib o'tib, qurshab olib zarba berish usuli.

Shialik-(arabcha guruh, tarafdarlar degan ma'nolarni anglatadi) islomdagи ikki asosiy yo'naliishlardan biri, xalifa Ali ibn Abu Tolip va uning avlodlaridan iborat 12 imomga ergashganlar, ular hokimiyatinigina tan oluvchilardir. Shialik Eron va Iroqda keng tarqalgan.

IV. Mustahkamlash. Mashg'ulotlikdagi topshiriqlar, savollar ustida ishslash.

V. Baholash. Mashg'ulotda faol ishtirok etgan, uyg'a vazifani a'lo darajada bajargan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan 10 ta test tuzish va mavzuni o'qib kelish.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu
nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki
nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi*

**Tarix fanidan 5-sinf o‘quvchilarga 68 soatli
to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan
yozing.**




Narxi: 25 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.